

Ona yurtning - oltin beshiging

# TONG yulduzi

№ 36  
(66473)

2004 yil  
6 sentabr - 12 sentabr

Gazeta 1929 yil  
1 avgustdan chiqarib  
boshlagan

O'zbekiston bolalari  
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,  
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI.



SPID, kamqonlik, sil kasalliklari, yod yetishmovchiligi, chekishning oqibatlari, reproduktiv salomatlik va shaxsiy gigiyena masalalari to'g'risida zarur ma'lumotlar berdilar. Bolalar tibbiy madaniyatini oshirish esa ularni turli xil kasalliklardan saqlashga imkon yaratadi.

Bolalar oromgohlarini sifatli ichimlik suvi, turli sabzavotlar, oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar bilan ta'minlanishi ustidan jamoatchilik nazorati o'rnatildi. Oromgohlarda dam oluvchilarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida tegishli tashkilotlar bilan o'quv darslari tashkil etildi. O'tkazilgan «Kamolot» kunlari esa tinchlikni asrab-avaylashga, ijodiy qobiliyatni qo'llab-quvvatlab, ona yurtga sadoqatli, fidoyi insonlarni tarbiyalashga hissa qo'shdi, deb o'ylayman.

Bolalar o'rtasida  
asfaltga rasm  
chizish

yo'zuvchi, shoirlar, san'atkorlar bilan uchrashuvlar tashkil etildi.

Yoshlarni sog'lom turmush talablari asosida tarbiyalash, ularni ommaviy sportga jalb etish maqsadida sportning milliy turlarini rivojlantirishga, oromgohlarda «Futbolimiz kelajagi» turnirini o'tkazishga, «Yozgi oromgoh» kubogi uchun spartakiadalar o'tkazishga katta ahamiyat berildi. Respublikamizdagi 75 ta maktab qoshida faoliyat ko'rsatgan oromgohlarda ham bolajonlarimiz miriqib hordiq chiqarishdi. Sobir Rahimov tumanidagi I-maktabda «Kamolot» YOIH shahar kengashi tomonidan bolalarning intellektual darajasini oshirish maqsadida yoshlar o'quv markazi ochilib, kompyuter bilan ta'minlandi. Markazda malakali mutaxassislar kompyuter ilmini bepul o'rgatishdi. IIB ro'yxatida turgan 240 nafar voyaga yetmagan bolalar uchun Chirchiq shahrida hamda Andijon viloyatida harbiy sport oromgohi

Qashqadaryodagi «Yosh alangachi», Surxondaryodagi «Vaxshivor», Jizzaxdagi «Aloqachi» oromgohlariga ham guruh a'zolari tashrif buyurishdi, qiziqarli tadbirlar o'tkazishdi.

Oromgohlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda Respublika Xalq ta'limi vazirligi, Xotin-qizlar qo'mitasi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi, «Mahalla» xayriya jamg'armasi, Adliya vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, respublika Kasaba uyushmalari kengashi vakillari bilan hamkorlikda ish olib borganimiz o'z samarasini berdi.

Har qanday ishda fidoyilik bo'lsagina, yutuqlarga erishiladi. Maqsadimiz yagona: har bir yoshga jamiyatda o'z munosib o'rnini egallashiga

Mana, yangi o'quv yilini ham boshlab yubordik. Yozgi ta'tilni besh yarim milliondan ziyod o'g'il-qizlar qanday

o'tkazgani barchani qiziqtirishi tabiiy. Sir emas, bu yil respublikamizdagi 337 ta oromgohda 175 mingdan ziyod bola miriqib hordiq chiqarishdi.


«Kamolot»chilar ham har bir viloyatdagi oromgohlarda targ'ibot guruhlarini tashkil etishdi.

Yozgi oromgohdagi bolalarning tibbiy madaniyatini shakllantirish maqsadida «Kamolot» harakati Markaziy Kengashi tomonidan 22-24 iyun kunlari Toshkent viloyatida joylashgan barcha oromgohlarga maxsus targ'ibot-tashviqot mashinalari yuborildi. Ushbu guruhlar tarkibida Sog'liqni saqlash vazirligi, «Sog'lom avlod uchun» jamg'armasi, nodavlat, notijorat tashkilotlar vakillari bo'lib, ular bolalarga interaktiv, noan'anaviy usullarda o'quvchilarning yoshini inobatga olgan holda giyohvandlik,

tanlovlari, ma'rifatchilar klublari, «Jannat onalar oyog'i ostida», «Mening maktabim» mavzularidagi davra suhbatlari orqali yoshlarimiz ongiga kattalarga hurmat, ota-onani, ustozlarni e'zozlash kabi tuyg'ular singdirib borildi. Tabiatni asrash, suvni tejab ishlatish, tabiat sofligini ta'minlashga qaratilgan turli seminarlar, davra suhbatlari o'tkazildi. Yozgi oromgohlarda bog'lar barpo qilinib, ekologiya muzeylari tashkil etildi.

«Mehr-shafqat» va «Oltin meros» yo'nalishlari bo'yicha o'tkaziladigan qator tadbirlar ham yoshlarni ajdodlarimizga munosib vorislar qilib tarbiyalashga qaratilgan. Bunday tadbirlar doirasida taniqli

tashkil etildi. Bunday oromgoh Andijon viloyatida ham faoliyat ko'rsatmoqda. Andijondagi «Quyoshcha», Buxorodagi «Nihol»,



ko'maklashish, ularni yagona maqsad atrofida birlashtirish, sog'lom turmush tarzini tarkib toptirish, yigit-qizlarning o'z aql-zakovati, kuch-g'ayratini to'la namoyon etishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib berishdan iborat. «Kamolot» yoshlarning suyanchi va tayanchi bo'lishiga astoydil harakat qilyapmiz.

Botir UBAYDULLAYEV,  
O'zbekiston Respublikasi  
«Kamolot» YOIH  
Markaziy Kengashi raisi.  
TAHRIRIYATDAN:

Aziz yetakchilar! Sizga «Kamolot»ning tili va dili bo'lib, uning dastur va amallarini yetkazadigan, vazifa va topshiriqlariga tilmochlik qiladigan o'z gazetangiz «Tong yulduzi»ga o'quvchilaringizni obuna qilishni unutmadingizmi? Axir «Tong yulduzi» - ong yulduzingiz-ku!

## ONAMGA SUV KELTIRAY...

Bizning qishlog'imiz Gumbaz deb nomlanadi. Men mana shu qishloqda yashayman. Uni juda yaxshi ko'raman. Keng dalalari, chiroyli manzaralari haqida eshitganman. Ammo shu go'zalliklardan bir umr bahra ololmayman. Sabab, tug'ma nogironman. Oilada birinchi farzandman. Ikki nafar ukalarim bor. Ming shukrki, ular sog'-omon. Faqat men...

Ayajonim dunyodagi eng

mehribon, eng bardoshli ayol desam adashmayman. Menga chora istab bormagan joylari qolmadi. Biz juda ko'p davolandik. Baribir nogironligimcha qolaverdim.

Hozir 1- guruh nogironiman. Ikki qo'ltiq tayyog'im bor. Uydan ko'chaga zo'rg'a chiqaman. Ayajonimning ham sog'liqlari ketib boryapti. Meni yolg'iz uyda qoldirib ketolmaydilar. Dalaga ketsalar, ba'zida hassangda charchab qolasan, deb opichlab oladilar.

Kattalar  
e'tibor  
beringiz

Tomorqadagi ishlarga rosayam yordamlashgim keladi. Terga bosib ishlayotgan ayajonimga hech bo'lmasa suv keltirib bersam edi, deb xayol qilaman.

Tumanimizdagi mutasaddi rahbarlarga ko'p bora nogironlar uchun ajratilgan aravacha olib berishlarini so'rab murojaat qilaverib charchadik.

Bu yil «Mehr va muruvvat yili» deb e'lon qilinganidan xursand bo'lganimizni bir ko'rsangiz edi...

Baribir menga atalgan maxsus aravachaga intizorman. Ayajonim yana tumanimizning kattalariga borgan ekanlar, bizga ham homiylar yordami kerak,

debдилar. Nahotki, bizdek mehr va muruvvatga zor insonlarga g'amxo'rlik ifodasi, mehr javobi, e'tibori shu bo'lsa?..



Dilorom DEHQONOVA,  
Farg'ona viloyati,

Uchko'prik tumani, Gumbaz qishlog'i,  
1- guruh nogironi.

## XO'JAKENTGA SAYOHAT

Mana, yangi o'quv yilini ham boshlab yubordik. Kimga quloq solsang, ta'til taassurotlaridan so'zlaydi. Biri-biridan qiziqarli hikoyalar. Men ham do'stlarimga yozgi ta'tilda «Xo'jakent» dam olish maskaniga borganimiz haqida so'zlab berdim. O'ziyam juda miriqib dam oldik-da...

Tog' yonbag'irlariga sayohatlar uyushtirdik. Toshidan-toshga urilib oqayotgan muzdek anhorda mazza qilib

cho'mildik. U yerdan turli dorivor giyohlar terdik. Ularning shifobaxshlik xususiyati haqida ham ancha narsalarni bilib oldik. Masalan, qariqiz o'simligi tanadagi har xil shamollashlarga, sachratqi o'ti - yara-chaqalarga, yantoq - sariq kasalligiga davo ekan.

Singlim Dildoraning hovuzga oyog'imni tiqaman deb suvga tushib ketganini eshitib, sinfdoshlarim rosa kulishdi. Uni olib chiqish bahonasida o'zimiz ham cho'milib oldik.

Xullas, yangi o'quv yilini yangi kuch, g'ayrat bilan boshladim.

**Dilshod IMOMOV,**  
Toshkentdagi  
316 - maktabning  
8 - «V» sinf o'quvchisi.



## ORZULARIM SARI YETAKLAGAN USTOZ

Bizning Toshkent tumanidagi 4-umumta'lim maktabimizda qalbidaryo ustozlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ayniqsa, tarix fani o'qituvchimiz, jonkuyar sinf rahbarimiz Zuhra opa Hojinazarova nomini ko'pchilik hurmat bilan tilga oladi. Buning boisi bor albatta. Chunki Zuhra opa yuzlab shogirdlarining qalbiga yo'l topa olgan kamtarin insondir. 7-8 yoshimdan boshlab she'rlar yozishni mashq qilaman. Jurnalistika kasbiga

qiziqishim balandligini sezgan ustozim menga maqolalar yozib turishimni ham maslahat berdilar. Yozganlarimni ayrim joylarini o'zlari tuzatib, qo'llarimdan yetaklab tumanimizning «Istiqlol nuri» gazetasi tomon yetakladilar. U yerda mehnat qilayotgan qalbi pok kishilar bilan tanishtirdilar. Ushbu gazetada «Qomusimiz-baxtimiz» deb nomlangan ilk maqolam chop etilganda boshim ko'klarga yetdi. Zuhra opa bo'lsa xuddi o'zining maqolasi chop etilgandek xursand bo'ldilar.



Sevimli gazetam «Tong yulduzi», sening qoshingda ochilgan «Istiqlol chechaklari» to'garagi sari yetaklagan ham ana shu mehdaryo ustozimdir. Bugun ushbu gazetam orqali o'z ustozimga qalb so'zlarimni aytayotganimdan behad-minnatdorman.

-Qalbidaryo o'qituvchimiz Zuhra opa, hamisha har bir o'quvchingizni farzandingiz kabi asrab avaylaysiz. Qo'limiz ko'ksimizda, sizga mudom ta'zimdamiz. Biz kabi shogirdlaringiz baxtiga sog'-omon bo'ling.

**Saida MASHRAPOVA,**  
Toshkent tumanidagi 4-umumta'lim maktabi o'quvchisi.

## HASHAR BIZGA YARASHAR!

Xalqimizda yaxshi bir udum bor: biror bayram, tantanadan avval albatta hashar uyushtiriladi. Unda yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan g'ayratli, himmatli insonlar qatnashishadi.


Mustaqilligimizning 13 yilligi nishonlanadigan kunga ham oz qoldi. An'anaga ko'ra, o'tgan dam olish kunlari yurtimizda katta hashar bo'lib o'tdi. Biz ham o'zimiz yashaydigan ko'p qavatli uyimiz atrofini tozalashga kirishdik. Ukalarimiz Umid, Zafar, Ulug'beklar daraxtlarni oqlashdi, tagini yumshatib, sug'orishdi, begona o'tlardan tozalashdi. Biz dugonalarim Go'zal, Ma'rifat va Dilafro'zlar yo'laklarni supurdik, chiqindilardan tozaladik. Ota-onalarimiz ham qarab turishgani yo'q. Daraxtlarning qurigan, keraksiz shox-shabbalarini tekislashdi, tesha bilan begona o'tlarni tozalashdi. Hashardan so'ng onajonlarimiz damlagan palovxonto'rani mazza qilib tushirdik. Mehnatning oshi shirin bo'ladi, deganlari rost ekan...

Ertalab tashqariga chiqsam, hovlimiz ko'zimga orolangan kelinchakdek ko'rinib ketdi.



**O'g'iloy ERGASHEVA,**  
Toshkentdagi 281 - maktabning 5 - sinf o'quvchisi.

## HAMISHA BAHOR



Bugun Samarqand viloyati, Narpay tumanidagi 9-sonli «Gulbahor» nomli bolalar bog'chasi tarbiyalanuvchilarining yuzida cheksiz quvonch, qalblari shodlikka to'lgan. Ular yod olgan she'r va qo'shiqlarini baralla aytib, sho'x raqsga tushgan kuyi

o'z qadrdon dargohlari bilan xayrlashmoqda. Maktab sari ilk qadamlarini tashlayotgan bu bolalarga Jamila Rahmonova bosh-qosh bo'lib keldi. Har tong bolalarni iliq tabassum bilan qarshilayotgan mudiraning yuzlaridan nur yog'ildi. Bog'chadagi shinam sport zali esa hamisha kichkintoylar ixtiyorida edi. Ular barcha qulayliklarga ega bo'lgan to'garaklarda rasm

*Xayr bog'chajon, bog'cha!*

chizish, musiqa chalish, turli xil o'yinchoqlar yasash, o'qish va yozishni qunt bilan o'rganib olishdi. Mukarram Ashurova, Gulasal Xolnazarova, Lola Yusupova kabi bog'cha opalarining mehribonligidan nafaqat kichkintoylar, balki ularning ota-onalari ham mamnun. Bolalarni o'z farzandimdek yaxshi ko'raman, ular bilan har kunim maroqli kechadi. Bog'chadagi har bir bola uchun biz mas'ulmiz, ular yuzu ko'zimizga, so'zlayotgan so'zimizga mahtal bo'lib turishadi. Bolaning tilini, dilini tushunishimiz lozim, dedi Lola opa Yusupova. «Gulbahor» nomli bolalar bog'chasining bog'bon tarbiyachi va xodimlari o'z farzandlaridek katta guruh tarbiyachilarini maktabga kuzatib, yana jajjilar bilan bag'rilarini to'ldirishdi. Ha, ustoz va tarbiyachilar bag'ri hamisha bolalar bilan to'liq. Bu to'liqlikda hamisha bahor mavjud.

**Mohinur HAYDAROVA,** o'quvchi.

### Maktabim - seni maqtogum

## TA'TILDAGI QUVONCHLAR

Biz Poloxon qishlog'ida yashaymiz. Qishlog'imizda 11-o'rta maktab joylashgan. Maktabimiz soya- salqin, keng va yorug'. Har yili yangi o'quv yili boshlanganida maktabimiz yanada chiroy ochadi. Shinam sinf xonalarimiz o'quvchilar bilan to'lganida, gullarga burkanganida, o'qituvchilar mehri ila



yonganida bu maskanning shunday kunlarida qalbm faxrga to'ladi.

Mana, jonajon maktabimiz bag'ri yana o'quvchilar bilan gavjum.

Birinchi dars kunlarida barchamiz ta'til quvonchlari va xotiralari bilan o'rtoqlashdik. Men albatta sinfdoshlarimga ushbu she'rimni o'qib berdim:

*Maktabim to'la o'quvchilar,*

*Bilim berar o'qituvchilar.*

*O'quvchilar dili shod,*

*Maktabim bo'lar obod.*

*Maktab ko'zni ochirar,*

*Xomon yo'ldan qochirar,*

*Insonni olim qilib,*

*Bilimini oshirar.*

*Maktab ilmga kondir,*

*Juda aziz makondir.*

*Maktab go'zal har qachon,*

*Bizga doim qadrdon.*

**Hidayat DAVRONOVA,**  
Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumani.



# OLIMPIADANING SOVG'ASI

*Kuni kecha Toshkent xalqaro aeroportida katta tantananing guvohi bo'ldik. Afina-2004 olimpiadasida muvaffaqiyatli ishtirok etib qaytgan sportchilarimiz yurtga qaytdilar. Ularning ko'ksida yurtimizning 13 yilligi to'yiga to'yona bo'lib, 2 ta oltin, 1 ta kumush, 2 ta bronza medali tovlanardi.*

## Istiqlol quvonchlari

Yaqinda poytaxt aeroportidan sportchilarimizni Afinadagi XXVIII yozgi olimpiada musobaqalariga kuzatar ekanmiz, kim birinchi bo'lib yurtga oltin medal tuhfa etarkin, degan o'y kechgandi xayolimizdan.

Kuni kecha Afinadan kelgan ajoyib xushxabarni eshitib, bu savolimizga javob topdik. Hamyurtimiz Aleksandr Doktorshvili «Olimpiada-2004» o'yinlarida birinchi oltin medalni qo'lga kiritdi.

Mahoratli yunon-rum kurashchilarimizdan biri Doktorshvili O'zbekiston, Yevropa va Osiyo chempioni, yoshlar o'rtasida jahon chempioni sovrindori edi. Endi u XXVIII Olimpiada o'yinlarining ham chempioni bo'ldi.

Chempionning sovrinlari safiga Afina Olimpiadasining oltin medal ham qo'shildi. U finaldagi raqibi finlyandiyalik kurashchi Ili Xannukselani 4:1 hisobida mag'lubiyatga uchratdi. Afinada uring g'alabasi sharafiga mamlakatimiz bayrog'i ko'tarilib, madhiyamiz yangradi.

Xalqimizda shunday naql bor: yurakda borini bilak ko'rsatadi. Aleksandrning yuragida esa yurt bayrog'ini baland ko'tarish istagi bor ekan. Bu istagiga halol jangda baquvvat bilaklari orqali yetishdi.

**Erkin kurash bo'yicha** yoshlar o'rtasida Osiyo chempionati sovrindori, Magomed Ibragimovga Olimpiadada kumush medal, O'tkirbek Haydarov va Bahodirjon Sultonovga olimpiadaning bronza medali nasib etdi.

Shunday qilib, Afinada o'tgan XXVIII yozgi olimpiadada bizning sportchilarimiz 2 ta oltin, 1 ta kumush, va 2 ta bronza medali bilan 207 davlat vakillari orasida 34- o'rinni egalladilar.

Vatanimiz Olimpiya tarixida yana bir yangi sahifa ochildi: Sportchilarimizga olimpiadaning so'nggi kunlarida omad yana bir kulib boqdi.

Erkin kurash bo'yicha jahon chempionati va Sidney Olimpiadasining kumush medali sohibi, o'ta og'ir vazn toifasidagi sportchimiz Artur Taymazovning g'alabasi tufayli yurtimizga ikkinchi oltin medal tuhfa etildi.

Artur musobaqaning dastlabki kunlarida Bolgariya, Ozarbayjon, Rossiya singari davlatlarning zo'r kurashchilarini mag'lubiyatga uchratgandi. Yarim finalda esa uning raqibi, jahon chempionati sovrindori turkiyalik Aydin Po'latchi ustidan qozonilgan g'alaba yurtdoshlarimiz quvonchiga quvonch qo'shdi.

Olimpiada finalida unga raqib bo'lgan eronlik Alirizo Rizoydaxdan ham Arturning qo'li baland keldi. Hamyurtimiz olimpiadaning oltin medaliga sazovor bo'lganda uning necha yillik orzusi ushalgandi. Endi ushbu oltin medal bilan nafaqat

Artur Taymazov, balki butun O'zbekiston faxrlanib yuradi.

**Afinada olimpiadalar yakunlandi.** Dunyo sportchilarini ikki hafta mobaynida o'z bag'riga chorlagan qadimiy Gretsiyada hali ham g'alabalar qichqirig'i yangramoqda go'yo.

Bolajonlar, bilasizki olimpiada o'yinlariga yana to'rt yildan so'ng Xitoy davlati mezbonlik qiladi. Demak, 2008 yilda bo'lib o'tadigan olimpiada o'yinlariga hali vaqt bor. Umid qilamizki, bu kabi natijalar salmog'i yildan-yilga o'shaveradi.

Yurtimizda hamon istiqlol shukuhi kezmogda. Mamlakatimizning har go'shasida istiqlolning 13 yilligi tantanalari davom etmogda.

Bayramlar bayramlarga ulanib ketsa, qanday yaxshi-ya.

## «Universiada-2004»

bo'ldi. Istiqlol shodiyonalari 4- sentabrda boshlangan «Universiada -2004» sport o'yinlarining tantanali ochilish marosimiga ulanib ketdi. Ushbu sport bellashuvlarida yurtimiz oliy o'quv yurtlarining 28000 nafar sportchilari sportning 12 turi bo'yicha kuch sinashmoqdalar. Bellashuv bir bahona, yurtimiz yoshlarining bayrami avjida, do'stlarining saflari yanad kengayayotgani tayin.

## SAMARQANDDA YOSHLAR BAYRAMI

Oynaiy jahon orqali shodiyona, baxtiyorlik hissi jo'shib turgan bayramni tomosha qilgan odamning zavqi kelib ketadi. Tomchilar birlashmasa, jilg'a hosil bo'lmaganidek, sport ishqibozlari ko'p bo'lmaganida, musobaqalar ham bu qadar jonli, qiziqarli va ko'tarinki ruhda o'tmasdi...

Bugun Samarqandning ko'rki, tarovati bo'lakeha. Uning tarixiy inshootlari safiga yana ko'plab zamonaviy sport inshootlari, maydonchalari qo'shildi. 15000 tomoshabinga mo'ljallangan oyingoh, yangi litsey va uchta sport zali qad rostladi. Universiada mash'alasi ham bir yil ichida qurib bitkazilgan yengil atletikachilar, voleybolchilar, bokschilar va basketbolchilarning kompleks maydonida yoqildi. Parkent tumanida joylashgan «Fizika va Quyosh» institutida alanga odirilgan mash'alani samarqandlik 8 ming nafar yoshlar kutib oldilar.

Universiadaning barcha ishtirokchilariga biz ham omadlar tilab qolamiz.



## BAYRAM TUHFASI


Yaqinda Oqsaroy qarorgohida Prezidentimiz raisligida O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining Homiylik kengashi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Ushbu yig'ilishdan ko'zlangan asosiy maqsad - bu borada olib borilayotgan ishlarni sarhisob qilish, sportsevar bolajonlarga yaratilayotgan shart-sharoitlarni yanada yaxshilashdan iborat edi. Axir yurtimizga sog'lom va fikri teran avlod kerak. Buning uchun esa sog'lom turmush tarzini shakllantirish

birinchi galdagi vazifalarimizdandir. Bugungi kunda respublikamizning eng chekka joylarida ham yangi- yangi sport inshootlari bunyod etilmogda. Bunday xayrli ishlar zamirida bolalarga mehribonlik va g'amxo'rlik ifodasi yotadi.

Kuni kecha Hazorasp tumanining Muhomon qishlog'ida yangi sport majmuasi foydalanishga topshirildi. Ko'rkam va shinam bu majmuada 100 o'ringa mo'ljallangan o'yingoh, 18x42 hajmli muhtasham saroy qad rostladi. Bu maydonlarda hazorasplik bolalar sportning 8 turi bilan shug'ullanadilar. 450 nafar sportchi bolalarga mahoratli va tajribali murabbiylar ustozlik qiladilar.

Bunday sport inshootlari Xorazm viloyatining Xonqa va Bog'ot tumanlarida ham foydalanishga topshirildi. Bu esa sportsevar bolajonlarga ajoyib bayram sovg'asi bo'ldi.



Sahifani Ma'mura MADRAHIMOVA tayyorladi.

# 6 YOSHIDA TANIQLI QO'SHIQCHI,



**JASUR  
MIRSOATOV**

Jasur Mirsoatov - 1996 yil, 17 fevralda Toshkent shahrida tug'ilgan. Toshkentdagi 9-o'rta maktabda tahsil olish bilan birga 26-sonli musiqa maktabida ham fortepyano bo'yicha saboq oldi. 1999 yildan buyon «Alovuddin» vokal studiyasi mashg'ulotlarida qatnashib keladi. 2001 yilda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 10 yilligiga bag'ishlangan tantanalarda ishtirok etish baxtiga muyassar bo'ldi.

2002 yilda ORT kanali orqali namoyish etiladigan «Tong yulduzi» tanlovining diplomanti bo'ldi.

«Umid yulduzlari», «Istiqlol umidlari», «O'zbekiston - Vatanim manim», «Qo'shiq bayrami», «Umid nihollari» kabi ko'plab tadbir va tantanalarning eng faol ishtirokchilaridan biri. Ham klassik, ham zamonaviy estrada qo'shiqlarini zo'r mahorat bilan ijro etadigan Jasurning repertuaridan o'zbekcha, italyancha, fransuzcha, turkcha qo'shiqlar joy olgan. Jasur o'zbek, rus va ingliz tillarini mukammal biladi.



**FERUZA  
JUMANIYOZOVA**


Feruza Jumaniyozova - 1983 yil, 13 fevralda Xorazm viloyati, Urganch shahrida tug'ilgan.

1990 yilda Urganch shahridagi A.Gaydar nomli rus maktabida 6-sinf gacha o'qigan.

2000 yilda bo'lib o'tgan «Iste'dod - 2000» ko'rik-tanlovi g'olibi, 2002 yilda Janubiy Koreyada bo'lib o'tgan butunjahon festivali laureati, «Estrada yulduzlari - 2001» shousi qatnashchisi bo'lgan. 2002 yilda bo'lib o'tgan «Umid yulduzlari - 2002» ko'rik-tanlovida 1 - o'rin sohibasi bo'lgan. Shu yili Botir Zokirov xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan «Umid yulduzlari» ko'rik-tanlovining 2-bosqichi sovrindori bo'lgan.

Rus, ingliz, tojik va turk tillarini mukammal biladi.  
2004 yilda Prezidentimiz tomonidan iste'dodli, yosh xonandalarni qo'llab-quvvatlab borish maqsadida ta'sis etilgan «Nihol» Davlat mukofoti sovrindori bo'ldi.

# 16 YOSHIDA «ZULFIYA» NOMIDAGI DAVLAT MUKOFOTI SOVRINDORI,



**RUSTAM  
QOSIMJONOV**

Rustam Qosimjonov - 1979 yili Toshkentda tug'ilgan. 5 yoshidan shaxmat o'ynagan. 1998 yilda 2582 shaxmatchi orasidan eng yaxshisi deb topilgan 100 nafar sportchilar safidan 97 o'rinni egalladi. 1998 yilda Osiyo chempioni, 1999 yilda Yerevanda o'smirlar orasida o'tkazilgan chempionatda kumush medal sohibi bo'ldi. 2001 yilda Essenda, 2002 yilda Pamplonada o'tkazilgan turnirlarda eng muhim g'alabalarni qo'lga kiritdi.

Xobbisi: adabiyot, ingliz hamda nemis tillari.  
Bu yil u Jahon chempioni bo'ldi.



**YEKATERINA  
ABLAYEVA**

Yekaterina Ablayeva - 1981 yil, 4 oktabrda Toshkent shahrida tug'ilgan. Millati rus. O'rta ta'limni 18-maktabda iqtisod yo'nalishi bo'yicha olgan.

1998-2002 yillarda Toshkent Davlat Agrar Universitetining iqtisod fakultetida bakalavr, 2002-2004 yillar shu Oliyog'da magistraturani marketolog mutaxassisligi bo'yicha o'qigan. 2002 yilda «Qishloq xo'jaligi va irrigatsiya qishloq xo'jaligi iqtisodi» yo'nalishi bo'yicha Davlat Prezidenti stipendiati bo'lgan. 2003 yilda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan.

# 21 YOSHIDA «NIHOL» DAVLAT MUKOFOTI SOVRINDORI, PREZIDENT STIPENDIATI,



**DILNOZA  
ISMIYAMINOVA**

Dilnoza Ismiyaminova - 1983 yilda Toshkent viloyatining Olmaliq shahrida tug'ilgan. «O'zbeknavo» estrada birlashmasi Toshkent viloyati bo'limining xonandasi. Olmaliq shahar madaniyat uyi qoshidagi «Kamolot» ansambli rahbari. 2002 yilgi «O'zbekiston - Vatanim manim» qo'shiq tanlovining sovrindori. 2004 yilda «Turkiston» saroyida o'zining yakkaxon konsert dasturini namoyish etdi. «Do'ppi tikdim», «Qo'lamaysiz», «Elim», «Bu kechalar» kabi qo'shiqlari bilan muxlislari qalbidan joy olgan. Bu yil «Nihol» mukofoti sovrindori bo'ldi.

Rus, ingliz va nemis tillarida bemalol gaplasha oladi.




**IRODA  
TO'LAGANOVA**

Iroda To'laganova - 1982 yil, 7 yanvarda Toshkentda tug'ilgan. 9 yoshidan sportning tennis turi bilan shug'ullanib keladi. 1995 yildan Germaniyadagi Boris Brekvar tennis akademiyasida tahsil olgan. 14 yoshidan Federatsiya kubogida O'zbekiston terma jamoasi sharafiga himoya etib keladi. 1999 yilda Uimbldon turnirining o'smirlar o'rtasidagi bahslari chempioni bo'lib, qirolik balida ishtirok etgan. Sanex WTA musobaqalari yakkalik bahslarining 3 marta, juftlik bellashuvlarining 4 marta g'olibasi bo'lgan. Jahon reytingida 17-o'rinni egallagan. Osiyo o'yinlari g'olibasi.

Feruza Abduqahhorova - 1988 yil, 31 yanvarda Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanida tug'ilgan. To'raqo'rg'on shahridagi 18 - Navro'z bog'cha-gimnaziyasining ingliz va rus tillari chuqurlashtirib o'rgatiladigan sinflarida tahsil oldi. 2000 yilda maktabning «Eng iqtidorli o'quvchisi» faxriy unvoniga sazovor bo'ldi.

«O'zbekiston - Vatanim manim» ko'rik-tanlovining tuman bosqichi hamda «Raqs malikasi» viloyat ko'rik-tanlovidagi ishtiroki uchun xalq ta'limi boshqarmasining «Faxriy yorliq»lari bilan mukofotlangan. «Tashlab ketma meni bolalik», «Yulduzlar chorlayotir» nomli she'riy to'plamlari chop etilgan.



**MURODXO'JA  
TURSUNXO'JAYEV**

Murodxo'ja Tursunxo'jayev - 1980 yil, 28 avgustda Toshkent shahrida tug'ilgan. 219 - sonli ixtisoslashgan o'rta maktabni huquqshunoslik ixtisosligi bo'yicha tamomlagan. Hozirda Toshkent Davlat Agrar Universitetida tahsil olayti.

2002-2003 o'quv yilidan boshlab Agrokimyo va agrotuproqshunoslik fakultetining «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati boshlang'ich tashkiloti Kengashi raisi etib saylandi. Shu yilning yakunida universitetning «Eng yaxshi tashkilotchisi» deb topilgan hamda universitet ilmiy kengash stipendiyasi sovrindori bo'lgan.

2004-2005 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi ta'sis etgan «Kamolot» stipendiyasiga sazovor bo'ldi.



**FERUZA  
ABDUQAHHOROVA**

# 25 YOSHIDA JAHON CHEMPIONI

*Iqtidor va iste'dod. Bir-birini to'ldirib, mazmunan boyitib turadigan bu egizak fazilatlar ayrim bolalargagina nisbat qilinadi. Aslida, ular har bir bolada mujassam. Gap faqat uni o'z vaqtida payqay olish, shakllantirish, maqsad sari yo'naltira bilishda. Ular ota-onalarimiz va ustozlarimizdagi har bir bola qatbiga yo'l topa bilish, ularga nisbatan e'tiborliroq, talabchanroq bo'lish kabi xislatlar bilan qorishib ketsagina, ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.*

# BO'LISH MUMKIN!

Darsxonangizning eng ko'rinarli joyiga osib qo'ying.  
Ko'ring, havas qiling, ilyo Siz ham erishing!

## Javlonlarga nima bo'ldi?

Biz o'tgan yili toqqa pichan o'rimiga borgandik. O'rim mavsumi bo'lgani uchun hamma qishloqdoshlarimiz bu yerga chaylaqurib ko'chib kelishgandi.

Men tog'amning o'g'li

## QASOSKOR ILON

Ulug'bek bilan tong sahardan to peshingacha pichan o'rib, keyin dam olardik. Bir kuni qo'shni chayladagilarning shovqin-suronini eshitib qoldik. Ularning katta o'g'li Javlon kattagina ilonni ayri uchiga ilib olib, ko'tarib kelayotgan ekan. Biz ham uni tomosha qilishga o'sha tomonga yugurdik. Javlon ayrini yerga qattiq urib, ilonni yarador qildi. Biz unga achinib ketdik. Shunda uning otasi: - Ilonga azob berma, ular qasoskor bo'lishadi,- dedi. Lekin Javlon otasining gaplariga e'tibor bermas, ilonga azob berishda davom etardi. Oxiri ilon to'lg'ona-to'lg'ona jim bo'lib qoldi. Javlon uni chaylaning



bir chetidan oqib o'tadigan ariqqa otib yubordi. Oradan bir hafta o'tgach, xuddi o'sha kuni Javlonni otga mingashtirib olib ketishayotganini ko'rib qoldik. Gap nimada ekanligini so'ragandik, otasi: -Uni ilon chaqib oldi. Anavi o'lgan ilonning jufti bo'lsa kerak, unga aytuvdim-a, tegmagin, deb, - deya bosh chayaqadi. Javlonning ranglari oqarib ketgan, terman degan quyilib kelardi. Biz uni tezroq shifo topib ketishini tilab, ulardan uzoqlashdik. Javlon ancha vaqtgacha o'ziga kelolmay yurib, keyin tuzaldi. Shu-shu bo'ldi-yu, o'rim paytida oyog'im tagidan chiqib qolgan ilonlarga ozor bermaydigan bo'ldim.

Nuriddin SIROJIDDINOV,  
Toshkent Davlat Sharq tillari instituti  
qoshidagi akademik litseyning  
3-bosqich talabasi.

Bu voqea yuz berganiga uncha ko'p bo'lgani yo'q. Uni menga eng yaqin do'stim Davron aytib berdi. Uning Javlon degan akasi bo'lib, u juda bezori, hammaga ozor berib yurarkan. Undan hatto ko'chadagi itlar ham qo'rqardi. Bir kuni Javlon o'rtoqlari bilan bir mushukni tutib olibdi. Davronning va og'a-inilarining gapiga quloq tutmay, uni qiynay boshlabdi. Shunda Olim degan bir o'rtog'i:

-Javlon, mushukni payg'ambarlar ham siylagan. Bir kasal mushuk behol bo'lib, payg'ambarimizning barida uxlab qolganida, uni bezovta qilmaslik uchun to'n etagini kesib, tashlab ketgan ekanlar, - debdi.


-Voy, Olimtoy-yey, menga aql o'rgatma,- deb Javlon battar mushukni g'ijimlabdi. Mushuk jon holatda pishillab, hunuk ovoz chiqarib, holdan ketibdi. Javlon esa bunga e'tibor bermay, uning oyoq-qollarini qayira boshlabdi va chalajon mushukni to'xtab turgan mashinaga bog'lab qo'yibdi. Bundan bexabar bo'lgan qo'shnimiz mashinasiga o'tirib,

haydab ketibdilar. Davron mashinani ketidan yugurib zo'rg'a yetib olibdi va qonga belangan o'lik mushukni yechib olib, ko'mib qo'yibdi. Buni ko'rgan Javlon uning ustidan rosa kulibdi. Qo'shnimiz esa, uvoliga qoldim, deya bosh chayqabdi,

## MUSHUK QISMATI

ammo juda kech bo'lgan edi. Oradan bir necha

kun o'tgach, Javlon velosipedi bilan bozorga yo'l olibdi. Yo'lda ketayotib, bir traktorning pritsepidan mahkam tutgancha, velosipedni rulini qo'yib yuboribdi. Shu payt yo'ldagi chuqurga g'ildiragi tushib ketgan



velosipeddan uchib ketibdi-da, o'zi traktorga ilinib, ancha joygacha pritsepda sudralib boribdi. Javlonni holatini ko'rib qo'lgan odamlar traktorni to'xtatib, uni tezda kasalxonaga olib borishibdi. O'ziga kelgan Javlon to'satdan yig'lab yuboribdi. Chunki uning yodiga o'zi qiynab o'ldirgan mushuk tushgan ekan-da.

Ravshanbek USMONOV,  
Amudaryo tumani, Mang'it shahri.

Qadim zamondan beri ajdodlarimiz afsona, doston, rivoyat hamda ertaklar asosida o'zlarining ma'naviyat doirasini shakllantirganlar. Ularning muallifi xalq hisoblangan. Bora-bora ularning saviyasi yuqorilab,

bosib chiqarilganligi tufayli, bu roman tez orada qo'lma-qo'l bo'lib, galma-galdan o'qiladigan, uning nusxalari boy odamlardagina bo'lar edi. Har kech butun mahalla ahli yig'ilib, davrada bir kishi o'qir va hamma uni katta qiziqish bilan

jazoladi.

Yozuvchi o'zining tarjimai holida shunday deydi: «Men albatta boy yoki kambag'al oilada tug'ilganimni bilmayman, lekin bolaligimda qornim to'ymay qoldi, 7-8 yoshlarimda tushuna

## BIR ROMANGA BITTA QO'Y

izchil yo'nalishga ega bo'lib, yozuv paydo bo'lganidan so'ng, uni daraxt po'stloqlariga, teriga yoza boshlaganlar va albatta muallif nomi qo'shib yozilgan. Bu adabiyotning antik ko'rinishiga berilgan qisqacha ta'rif edi. Moziyga qaytib ish ko'rmoq xayrlidir. Ushbu hikmatli so'zlarning muallifi yangi o'zbek adabiyotiga o'zining katta hissasini qo'shgan Abdulla Qodiriyning hayotiga, asarlariga bo'lgan qiziqishi ortgan bo'lsa ortgandirki, aslo kamaymagan. «O'tgan kunlar» filmini yangicha talqinda ishlanishi buning yaqqol isbotidir. 1925-26 yillarda kitob shaklida yozilgan «O'tgan kunlar» romani juda kam nusxada

tinglardi. Bu roman «Maorif va o'qituvchi» jurnalida ham chop etilgan edi. Romanga ko'zi tushgan vodiylilik bir boy toshkentlik yozuvchining bittagina kitobini sotib olishi uchun o'zi bilan qo'y yetaklab kelgan ekan. Kitobxonlar orasida uni yodlab olganlar ham yo'q emasdi. Romanning boshlaridayoq bosh qahramon Otabek Rossiyaning o'zbeklar uchun ibrat bo'ladigan tomonlari ko'pligini, lekin Turkiston Rossiyaga qo'shila olmasligini aytgan. Romandagi aynan shu so'zlar uchun Abdulla Qodiriyga «Millatchi», «Xalq dushmani» degan tamg'a bosildi. Ijodining eng gullagan davrida endigina 47 bahorni qarshi olgan mashhur yozuvchini zamonning beshavqat tuzumi ayovsiz



## Ayblov

boshladim. Bitta tirik jonni yolg'iz 87 yoshli otam boqardi». Ha, hatto boshlang'ich ta'limni oxirigacha yetkaza olmagan Otabek tug'ma iste'dodi bilan o'quvchi qalbiga kirib bordi. Masalan, romanda hidlardan foydalanishi, Marg'ilonning hovlilaridan birida yog' hidi kelib turardi, deyiladi. Bu albatta tabiiylikni oshirish uchun xizmat qiladi. Qahramonlarning ismlari esa go'yo tabiiy ma'noda olinganga o'xshaydi. Roman so'nggida Kumushning fojiasidan so'ng, O'zbekoyim qora kiydi, deyiladi. Birgina O'zbekoyim timsolida barcha o'zbeklar taqdiri tilga olingan bo'lsa, ajab emas. O'zbekning hur fikrli farzandlari sho'rolar hukumatining siyosati qurboni bo'lgan bo'lsa-da, o'zbek adabiyoti, o'zbek jurnalistikasida ularning siymolari, nomlari barhayotdir.

Munajat SADRIDDINOVA,  
talaba.

## EZGULIK

(Qatra)

Yaxshilik. U nima o'zi? Yaxshilik - bu o'zgarlar manfaati yo'lida jondan kechmoqlik jasoratidir. Ezgulik deya atashadi uni yana. Odam Atoning ruhiga sut bo'lib kirgan ekan bu xilqat. Nur bo'lgan joyda soya bo'lmog'ligi muqarrar bo'lgani kabi ezgulikning ortidan jaholat kabi qora

ko'lanka ergashib yuradi. Ammo u hamisha g'olib. Zeroki, beminat qilingan yaxshilik besamar bo'lmas. Yaxshilik bor, demak oqibat abadiy yashaydi oramizda. Yaxshilik qilishga shoshilaylik, azizlar!

Navro'z ASHIRMATOV,  
Toshkent viloyati,  
Parkent tumani.

## ENG YAXSHI FOTOSURAT KIMNIKI?

Aziz o'quvchilar! Sevimli gazetangiz «Tong yulduzi»ning rangli tasvirda chiqayotganidan xabaringiz bora? Unda chop etilayotgan turli rangdagi fotosurat va rasmlar o'tiboringizni jalb etayotgan, ko'zingizni quvnatayotgan bo'lsa, ajabmas. Gazetaning ana shunday rangli suratlarga boy chiroqli chiqishida Siz ham o'z hissangizni qo'shishingiz mumkin. Buning uchun o'zingizga yoqqan, bolalikning betakror lahzarlarini ifodalovchi suratlarni tahririyatimizga yuborishingiz kerak. Suratlarda ustozlaringiz, oila a'zolaringiz, do'stu o'rtoqlaringizdan tortib o'zingiz sevgan uy hayvonlari-yu, hayotingizdagi quvonchli damlarni ifodalovchi lahzalar ham namoyon bo'lishi mumkin. Ularqa lag so'z yozish ham o'z ixtijoringizda. Tiniq va sifalli rangli surallar gazetamizning birinchi sahifasida e'lon qilmadi.

...Osmon ko'm-ko'k. Oppoqqina bulutlar asta suzib yuribdi. Tuman ichida chiroylikkina bir chehra ko'rindi. U qo'llarini cho'zib bir nimalar der, qiz esa eshitmasdi...

-Oyi... Oyijonim...- Munira shunday deya uyg'onib ketdi. Yana tushi ekan. Oyimlar ketma-ket tushimga kirayaptilar, o'yladi u. Menimcha, har kuni o'ylayotganimdan bo'lsa kerak... Munira o'rnidan turib, endigina o'rnini yig'ayotgan ham ediki, eshik taraqlab ochilib, o'gay onasi kirib keldi:

-Ha, nima qilib yotibsan? Meni kelayotganimni sezib, o'zingni joy yig'ayotgan qilib ko'rsatayapsanmi?

-Oyijon, men hozir, Munira shunday dedi-yu, hovliga otildi. Yuvinib, kundan kunga sarg'ayib, siniqib borayotgan yuzlarini oynaga solar ekan, chuqur uf tortdi.

-Iye, nima, onangni o'lgani endi esingga tushdimi? Qo'lingga chelakni ol, sigirni sog' borib, shum yetim...

O'gay onasi taraqlatib eshikni yopib, uyga kirib ketdi. Munira chelakni olib sigirning oldiga bordi. Oyijonim buni erkalab, silab-siypalab sog'ardilar. Mening bechora oyim. Dadamning zug'umlari

ostida... Ey, yo'q, xudoning irodasi bu. U sigirni sog'ib, oshxonaga sutni olib kirib qo'ydi. Endi choy tayyorlashi kerak. Dadasi ishga ketadi. Nega o'gay onamga indamaydilar? Axir oyijonim ertalabdan kechgacha tinmasalar ham, ish qilmaganga chiqarardilar-ku. O'gay onasi esa hamma ishlarni Muniraga yuklab qo'ygan. Dugonalari kabi ko'chalarda mazza qilib o'ynay olmaydi... Eh, yashash bunchalar qiyin ekan-a? U oyijoni bilan birga bo'lgan damlarni eslab shirin xayollar surib o'tirgandi, birdan pishillab sut toshib ketdi.

-Endi shu yetmay turuvdi, tezroq artib olmasam...

-Hoy, nonko'r, sutni toshirding-ku, ertalabdan bolamning rizqini qiyding. Ha,

yashshamagur, yetimcha, mana senga, mana... Munira ketma-ket tushgan tarsakilardan gangib ketdi. O'gay onasi esa vaysashdan tinmasdi.

-Onang go'rida tikka tursin, iloyim...

-Bo'ldi, o'chiring hoziroq! ovozingizni, oyimning ruhlarini tinch qo'ying!

Bu nido qanday qilib tiliga otilib chiqib ketganini Munira sezmay qoldi. Qonayotgan burnini sochiqqa artarkan, oyimga til tekkizmang, ular dunyodagi eng pok ayollar, bildingizmi? Ularni haqorat qilmang, deb qichqirdi.

-Voy-dod, meni haydayapti, voy dadasi, qayerdasiz, peshonam qursin meni, yetimchani qornini to'ydirsam, u esa meni qopayapti. Dadasi, bu yoqqa keling.

O'gay onasini xatti-harakatlarini, uning qanchalik laganbardorligini kuzatib turgan Muniraning qalbi to'la nafrat,

ko'zlarida ikki tomchigina yosh qotib qolgan edi. Dadasi kelib, gap nimadaligini so'radi. O'gay onasi esa bichib, chatib, gapni ilib ketdi.

-Buningizni daf qiling, men turaman yoki bu. Tanlang,

-Qizim,-dedi u tomoq qirib.- Shohida oying bilan chiqisha olmayapsan. Men kun bo'yi ishdaman. Seni, kel, seni biror joyga...

-Dada, bolalar uyiga deyavering, oyim sizdan yolvorib so'ragandilar o'sha yerga bermang, deb, lekin siz majbursiz, hamma narsani tushunaman, kechiring meni, risoladagidek qiz bo'lolmadim sizga!

Munira bu gaplarni ham achchiq alam, ham nafrat bilan gapirdi. -To'g'ri, siz mening dadamsiz, sizga bunday deyish gunoh, lekin men oyimni juda yaxshi ko'rardim... Shunday deb u narsalarini yig'ishtira boshladi.

Mana, bolalar uyiga kelganiga ham ikki oydan oshdi. Seni ko'rishga kelaman, degan otasidan hamon darak yo'q. Munira o'sha pastqamgina devorli uyini, onasining so'nggi kunlarida yotgan nimqorong'i xonani, har kuni o'zi sog'adigan ola govmishni juda-juda sog'indi...

Ozoda TURSUNBOYEVA.

## MUNIRANING SOG'INCHI


(Hikoya)



Aziz bolajonlar! Siz yurtimizdagi tarixiy, muborak qadamjolar haqida ko'plab eshitgansiz. Yaqinda Vazirlar Mahkamasining «Shohi Zinda yodgorlik majmuasini qayta tiklash va obodonlashtirish ishlarini tashkil etish to'g'risida»gi qarori xalqimiz dilidagi ayni gap bo'ldi. Chindan ham ajdodlarimiz ruhini shod etib, ularning ilm va ma'rifat yo'lida sizni bizga bebaho xazinalar qoldirganligini qadrlab unutmashimiz lozim.

Shohi Zinda ziyoratgohi - Samarqand shahrining shimoliy-sharqiy qismida joylashgan. U

qo'qqisidan hujum qilgan g'ayridinlar ularni birma-bir o'ldira boshlaydilar. Navbat Qusam ibn Abbosga kelganida, ul zot namozni ado etgan hamono, mehrob devori yoriladi va ul zot u yerga o'tib chuqur quduqqa kirib ketadilar. Boshqa rivoyatlarga qaraganda, ul zot qo'lga o'zining kesilgan boshini olgan, quduqqa tushib ketgan.



## «SHOHI ZINDA» TIRIK SHOH

Markaziy Osiyodagi mashhur me'morchilik ansambllaridan biri hisoblanadi. Ushbu ziyoratgoh Shohi Zinda (Tirik shoh) nomi bilan mashhur bo'lgan shaxs Qusam ibn Abbos qabri atrofida qurilgan.

Qusam ibn Abbos Muhammad Alayhissalomning eng sevimli jiyanlari bo'lib, ul zoti oliy VII asrda Samarqandga arab fotihlari bilan birga kelgan va islom dinini targ'ib qilgan. «Qandiya» kitobida keltirilgan rivoyatlardan birida aytilishicha, shaharning Namozgoh masjidida (hozirgi Dahbed shoh ko'chasidagi Shayxzoda masjidida) Iydi qurbon namozini ado etayotgan Qusam ibn Abbos va boshqa musulmonlar ustiga

Shuning uchun ham Shohi Zinda, ya'ni «Tirik shoh» laqabini olgan. Aslida Payg'ambarimiz Qusam ibn Abbos din ahlini xushlamaydiganlar bilan o'tgan jangda halok bo'lgan emish.

Ushbu majmua deyarli to'qqiz asrdan beri 20 dan ziyod turli davrlarda tiklangan inshootlarni o'z ichiga olib, bo'y cho'zib turibdi.

Sohibqiron Amir Temur o'z davrida mo'g'ullar bosqinida vayronaga aylangan maqbarani qaytadan zeb berib tiklatdi, yog'ochdan yasalgan qabrnig eng qimmatbaho naqshinkor toshlar bilan o'zgartiradi.

Amir Temurdan so'ng uning ishlarini nabirasi Mirzo Ulug'bek davom ettiradi. Obidalar majmuini

nisbiy uch, ya'ni «quyi», «o'rta» va «yuqori» qismlarga bo'lish mumkin. Bularning barchasi bir-biri bilan ark-gumbaz ayvoni orqali bog'langandir. Quyi qismidagi kiraverish darvozaxonasi arkini Ulug'bek Mirzo o'zining kenja o'g'li Abdulaziz Mirzo nomidan 1434-1435 yillarda qurdiradi. Shuningdek, quyi qismida Ulug'bek Mirzoning o'z ustoz Mavlono Qozizoda Rumiy qabri ustiga qurdirilgan qo'sh gumbazli maqbarasi qad ko'tarib turadi. Qirq zinadan yuqoriga ko'tarilgan ayvon orqali o'rta qismiga o'tiladi. O'rta qismiga kirgan inshootlar XIV so'nggi choragi va XV asrning birinchi yarmiga mansub bo'lib, Amir Temurning yaqin qarindoshlari, lashkarboshilar hamda

ruhoniylar aslzodalarning nomlari bilan bog'liqdir.

Dunyo ahlining nazaridagi bu dargoh o'zining husn tarovati bilan tillarda dostonidir. Ziyoratgohga har kuni ko'plab sayyohlar tashrif buyurishadi. Ular Samarqandning bebaho tarixiy obidalaridan biri «Shohi Zinda»ni uzoq vaqt tomosha qilishadi. Dinidan, millatidan qat'iy nazar, ajdodlarimizga bo'lgan cheksiz hurmatlarini bayon qilishadi. Uzoq yillar davomida xarobaga aylangan faqat mustaqillik sharofati bilan o'tibor berilayotgan bu tabarruk qadamjolar ota-bobolarimizdan qolgan ulkan ma'naviy merosdir. Ana shu merosni ko'z qorachig'imizdek asrab-avaylab, kelgusi nasllarimizga omon yetkazish sizni bizning muqaddas burchimizdir.

Jamila ERDONOVA.

